

ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI VA VAZIFALARI, ASOSIY VOSITALARNI QAYTA BAHOLASHNING HISOBI

Ilmiy raxbar: Qóziyeva.M. O

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Buxgalteriya
kafedrasi assitenti*

Olimova Dilobar Nurkomil qizi

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bank-moliya xizmatlari
fakulteti Bank ishi yónalishi 424-guruh talabasi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.12.2025

Revised: 27.12.2025

Accepted: 28.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*asosiy vositalar, binolar,
inshootlar, amortizatsiya, qayta
baholash, inventatizatsiya,
uskunalar*

Ushbu maqolada asosiy vositalarning korxonalarda tutgan órni, soliqqa tortish me'yorlari, korxonalarning hisobida qo'llashning amaliy ahamiyati, asosiy vositalarni to'g'ri ro'yxatga olish, baholash, amortizatsiya ajratish va inventarizatsiya o'tkazish tamoyillari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bozor sharoitlarining o'zgarishi natijasida aktivlarning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida qayta baholashning zarurati va uning moliyaviy hisobotlarga ta'siri tahlil qilinadi. Respublikamizning 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ga asoslangan holda ma'lumotlar beriladi

Kirish

Asosiy vositalar bu har qanday korxonaning moddiy-texnik bazasini tashkil etuvchi eng muhim resurslardan biri hisoblanib, ular ishlab chiqarish jarayonida doimiy foydalaniladigan va uzoq muddat xizmat qiladigan aktivlardir. Asosiy vositalarning holati korxonalarning samaradorligiga va moliyaviy barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ga muvofiq asosiy vositalar-korxona tomonidan uzoq

muddat davomida xójalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar kórsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar. Bu qarorga muvofiq moddiy aktivlar asosiy vositalar sifatida tan olinishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Xizmat muddati davrida korxonaga daromat keltirish kerak.

Qiymati aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar sifatida tan olishdan oldin ularning foydali xizmat muddatini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Foydali xizmat muddati deganda asosiy vositaning korxona tomonidan belgilangan foydalanish vaqti tushuniladi. Bu muddat oylarda yoki yillarda ifodalaniladi va uning foydalilik qiymati ishlab chiqargan mahsulotiga qarab belgilanadi. Berilgan vaqt davomida asosiy vositalar o'zining qiymatini qoplashi va korxonaga foyda olib kelishi kerak. Asosiy vositalar sifatida biz binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va uskunalar, hisoblash texnikalari, transport vasitalari, uskunalar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari ofis mebeli va jihozlari ishchi va nasldor hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar, kutubxona fondi va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Korxona va tashkilotlarning asosiy vositalarni turli xil belgilariga qarab tasniflash mumkin.

Ishlab chiqarishda qatnashishiga qarab korxonaning asosiy vositalari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga sexlarning binolari, inshootlar, stanoklar, jihozlar, transport vositali, ishchi hayvonlar va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga korxonaning ijtimoiy-madaniy, maishiy sog'liqni saqlash, kommunal uchun foydalaniladigan moddiy aktivlarni misol qilishimiz mumkin.

Amortizatsiya qilinishiga qarab korxonalarning asosiy vositalari amortizatsiya hisoblanadigan va amortizatsiya hisoblanmaydigan turlarga bo'linadi.

Amortizatsiya hisoblanmaydigan asosiy vositalarga kutubxona fondi, ko'p yillik o'simliklar, ishchi va nasldor hayvonlar, konservatsiya qilingan asosiy vasitalar kiradi. Qolgan asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi (306-modda) asosiy vasitalar amortizatsiya me'yorlari bo'yicha 7 ta guruhga bo'linadi.

Amotizatsiyaning yillik eng yuqori normasi binolar, imoratlar uchun 3 %, ko'priklar, tug'onlar uchun issiqxona va parniklar uchun 5%, yengil avtomobillar, sanoat traktorlari, kommunal transport vositalari uchun 20% ni tashkil qiladi.

Soliq munosabatiga ko'ra asosiy vositalar molk-mulk solig'iga tortiladigan va tortilmaydigan guruhlariga bo'linadi. Soliq kodeksining 411-moddasiga muvofiq ko'chmas mulk hisoblangan asosiy vositalar mol-mulk solig'iga tortiladi, qolgan asosiy vositalar esa soliqga tortilmaydi.

Asosiy vositalarni qayta baholashning hisobi Respublikamizning 5-son BHMS ga muvofiq baholanadi. Asosiy vositalarni qayta baholash- asosiy vosiytalar tiklash qiymatini hozirga bozor narxlari darajisiga moslash maqsadida ularni vaqti- vaqti bilan aniqlashtirishdir. Qayta baholashda asosiy vositalarning tiklangan oshirilishi yoki pasaytirishi mumkin.

Asosiy vositalarni qiymati oshirilganda ularning yangi va eski qiymatlari o'rtasidagi ijobiy farq bugaltiriya hisobida quyigicha aks ettiriladi.

Debet 0111-0190 "Asosiy vositalar hisobi schotlari"

Kredit 8510 "Mulknı qayta baholash bo'yicha tuzatishlar"

Agar eskirish summasi oshirilsa unga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 8510 "Aktivlarni qayta baxolash bo'yicha tuzatishlar"

Kredit 0211-0290 "Asosiy vositalarni eskirishi hisobi schotlari"

Agar biz asosiy vositalarni qayta baholayotganimizda ularning yangi va eski qiymatlari o'rtasida salbiy farq chiqsa, buni biz ikki xil usulda xisoblaymiz.

1-usul: Korxonada oldindan asosiy vositalar qayta baholash natijasida rezerv kapitali shakillang bo'lsa u holda pasaytirilgan qiymat shu rezerv kapitali evaziga hisobdan chiqariladi. Bunda mos ravishda quyidagi yozuvlari qilinadi.

a) boshlang'ich qiymatlar orasidagi salbiy farqga.

Debet 8510 "Aktivlarni qayta baxolash bo'yicha tuzatishlar"

Kredit 0111-0190 "Asosiy vositalar hisobi schotlari"

b) eskirish summalari o'rtasidagi salbiy farqga

Debet 0211-0290 "Asosiy vositalarni eskirishi hisobi schotlari"

Kredit 8510 "Aktivlarni qayta baxolash bo'yicha tuzatishlar"

2-usul: Reserv kapitali mavjud bo'lmagan holda qo'llaniladi.

a) boshlang'ich qiymatlar o'rtasidagi salbiy farqga:

Debet 9430 "Boshqa operatsiyon harajatlar"

Kredit 0111-0190 “Asosiy vositalar hisobi schotlari”

b) eskirish summalari o’rtasidagi salbiy farqga (storno yozuvi)

Debet 9430 “Boshqa operatsiyon harajatlar”

Kredit 0211-0290 “Asosiy vositalarni eskirishi hisobi schotlari”

Adabiyotlar tahlili

1. Rossiyalik iqtisodchi V.M.Popov asosiy vositalarni hisoblash va ularni qayta baholash bo’yicha shunday ta’kidlaydi: "Asosiy vositalarning real qiymatini aniqlash – bu korxona faoliyatini samarali boshqarishning asosidir. Agar aktivlarning qiymati haqiqiy holatiga mos kelmasa, moliyaviy hisobotlar adashishga olib keladi."

2. P. A. Samarin iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan hisobning ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi: "Amortizatsiya va qayta baholash mexanizmlari orqali asosiy vositalar qiymati doimiy yangilanib turishi kerak. Bu korxonaning investitsiya siyosatini va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini aniqlash imkonini beradi."

3. Britaniyalik iqtisodchi J. Hicks o’z ishlarida shuni ta’kidlagan: "Asosiy vositalar hisobining aniq yuritilishi – bu faqat moliyaviy ko’rsatkichlarni ta’minlash emas, balki korxona samaradorligini oshirish va resurslarni optimal taqsimlashning vositasidir."

4. F. D. Chaykin hisob va moliyaviy nazorat bo’yicha fikr bildiradi: "Qayta baholashning asosiy maqsadi – aktivlarning balansdagi qiymatini real bozor sharoitiga moslashtirish, shuningdek, amortizatsiya va xarajatlarni aniq hisoblashni ta’minlashdir."

5. N. I. Kuznetsov iqtisodchi-olimi: "Asosiy vositalarni tasniflash va inventarizatsiya qilish orqali korxona rahbariyati ularning samaradorligini baholay oladi va yangi investitsiya qarorlarini ishonchli qabul qilishi mumkin."

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada asosiy vositalar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini hamda ularni qayta baholash masalalari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobiga oid milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar, amaldagi standartlar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari o’rganildi. Olingan ma’lumotlar asosida asosiy vositalar hisobining vazifalari, u larning baholanishi va qayta baholash jarayonining moliyaviy hisobotga ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida taqqoslash, guruhlash, kuzatish va tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo’yicha amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi

Tahlil va natijalar muhokamasi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishda asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va ularni haqqoniy baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlash, moliyaviy natijalarni aniq aks ettirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda asosiy vositalar hisobi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ularning dastlabki baholanishi, amortizatsiya hisoblash tartibi hamda qayta baholash jarayonlarini amaldagi me‘yoriy hujjatlar asosida yuritish zarur hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalarni qayta baholash korxona balansida ularning real bozor qiymatini aks ettirishga xizmat qiladi. Bu esa moliyaviy hisobot ma‘lumotlarining ishonchliligini oshirib, foydalanuvchilar uchun yanada aniq axborot taqdim etilishiga imkon yaratadi. Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning balans qiymati o‘zgarib, amortizatsiya summaları ham mos ravishda qayta hisoblanadi, bu esa moliyaviy natijalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, amaliyotda asosiy vositalarni qayta baholash bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, baholash jarayonida bozor qiymatini aniqlashdagi subyektiv yondashuvlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda qayta baholash xarajatlarining yuqoriligi ushbu jarayonni to‘liq va muntazam amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ayrim korxonalarda esa asosiy vositalar uzoq yillar davomida qayta baholanmasdan kelinishi natijasida ularning balans qiymati real holatni aks ettirmaydi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida asosiy vositalar hisobini yanada takomillashtirish, qayta baholash jarayonini aniq tartibga solish hamda baholash natijalarining moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishini ta‘minlash zarurligi asoslab berildi. Bu borada uslubiy ko‘rsatmalarni takomillashtirish, mas‘ul xodimlarning bilim va malakasini oshirish hamda zamonaviy baholash usullaridan foydalanish ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri tashkil etish korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va ulardan foydalanish samaradorligini aniq hisobga olish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash mumkin. Ayniqsa, ularning baholanishi va qayta baholash jarayonlari moliyaviy hisobotlarda real qiymatni aks ettirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida asosiy vositalarni qayta baholash nafaqat balans qiymatini yangilash, balki amortizatsiya hisob-kitoblarini asosli yuritish va moliyaviy natijalarni yanada aniqlashtirish imkonini berishi aniqlandi. Shu bilan birga, amaliyotda baholash jarayonining murakkabligi, xarajatlarning yuqoriligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi ushbu jarayonni samarali amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish, qayta baholashni tizimli ravishda amalga oshirish hamda bu jarayonda yagona uslubiy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda zamonaviy hisob usullarini joriy etish, xodimlar malakasini oshirish va axborotlarning shaffofligini ta'minlash korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida". – Toshkent, 2016-yil (o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Iqtisodiyot hamda moliya vazirligining buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). – Toshkent.
4. Xudoyberganov A.X. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Karimov B.A., Abdurahmonov Sh.R. Moliyaviy hisob va hisobot: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
6. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – Wiley, 2019.
7. Epstein B.J., Jermakowicz E.K. IFRS Interpretation and Application. – Wiley, 2018.
8. IASB. International Accounting Standard (IAS) 16 – Property, Plant and Equipment. – London.
9. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. – Pearson Education, 2020.
10. Korxonalar moliyaviy hisobotlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va ilmiy maqolalar to'plami.